

Avtokredit

1-qism. Kreditning asosiy shartlari

Kredit turi	Avtokredit
Kredit maqsadi	Dilerlik markazida yangi avtomobil yoki "Trade-in" dasturi bo'yicha avtomobil xarid qilish
Kredit valyutasi	So'm
Kredit summasi	1 000 000 000 so'mgacha
Kredit muddati	6 oydan 60 oygacha

Foiz stavkasi	yillik 0% dan 29,5% gacha
To'lovlar takrorlanishi	Har oy
Qaytarish usuli	Annuitet
To'lash usuli	Pullarni dilerlik markazining hisobraqamiga o'tkazish
Qo'shimcha xarajatlar	KASKO sug'urta polisi (qarz oluvchi hisobidan) — tarif taklifining tegishli shartlari asosida
Imtiyozli davr	Yo'q
Kredit ta'minoti	Xarid qilinayotgan avtomobil garovi
Arizani ko'rib chiqish muddati	Keyingi ish kuni ichida
Sug'urta	KASKO — tarif taklifi shartlariga qarab kreditning butun muddatiga, muddatning bir qismiga yoki sug'urtasiz*. Polis bo'lsa, to'lovni oluvchi — Bank

2-qism. Boshqa muhim shartlar

Kredit ta'minoti	Sotib olinayotgan avtomobil garovi. Garov qiymati — oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha narxdan 75%. Garovlar reyestrda ro'yxatdan o'tkazish — garov shartnomasi rasmiylashtirilgan sanadan boshlab 15 kalendar kun ichida.
------------------	---

*KASKO sug'urtasi	Bank quyidagi hollarda kreditni KASKOsiz yoki kredit muddatining bir qismi uchun KASKO polisi bilan berishga rozilik berishi mumkin:
-------------------	--

- Boshlang'ich to'lov 40% va undan ko'p bo'lsa;
- Qisqa kreditlash muddati tanlangan bo'lsa (tanlangan kredit dasturi shartlariga muvofiq);
- Avtomobil faqat shaxsiy foydalanish uchun (tijorat maqsadlarida, taksi, ijara yoki karshering uchun emas) sotib olinayotgan bo'lsa, bunda uning markasi va modeli Bankning maxsus ro'yxatiga kiritilgan bo'lishi kerak;
- Kredit arizasini ko'rib chiqishda qabul qilinadigan Bankning shaxsiy takliflari yoki individual qarorlari doirasida.

Polis bo'lsa: to'lovni oluvchi — Bank, belgilangan muddatga uzluksiz sug'urta, avvalgi polisning amal qilish muddati tugashidan kamida 5 kalendar kun oldin uzaytirilishi kerak. Polis belgilangan muddatda taqdim etilmasa, Bank Qarz oluvchi hisobidan avtomobilni mustaqil sug'urtalashga haqli.

3-qism. To'lov muddati o'tkazib yuborilganligi va boshqa qoidabuzarliklar uchun javobgarlik

Qoidabuzarlik	Turi	Miqdori
Asosiy qarzni o'z vaqtida qaytarmaslik	Penya	AQ summasidan kuniga 0,1%
Foizlarni o'z vaqtida qaytarmaslik	Penya	Muddati o'tgan foizlar summasidan kuniga 1,0%; muddati o'tgan foizlar summasining 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdorda
To'lov muddati o'tkazib yuborilgan har bir holat uchun	Jarima	Bir martalik 100 000 so'm
Ko'zdan kechirish / monitoring uchun avtomobildan foydalanishga ruxsat bermaslik	Jarima	Garov qiymatining 1 foizi
Garov predmeti yo'qotilganda yangi garov taqdim etilmasligi	Penya	Garov qiymatidan kuniga 0,1%
DYHXXda hisobga qo'ymaslik (texpasport taqdim etilgan sanadan boshlab 16-kalendar kundan texnik pasport taqdim etilgan kungacha)	Penya	AQ summasidan kuniga 0,1%